ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

IBORALARNING SO‘Z TURKUMLARIGA MUNOSABATI

Qosimjonova Farangiz Farid qizi,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Frazeologik birliklarning grammatik tabiatini tadqiq etish bugungi tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shu jihatdan, iboralarning so‘z turkumlariga munosabati masalasi alohida e’tibor talab qiladi. Chunki frazeologizmlar til tizimida oddiy so‘zlar kabi grammatik kategoriya va vazifalarni bajarishi, shu bilan birga, o‘ziga xos semantik yaxlitligi bilan ham ajralib turadi. Bu ikki tomonlama xususiyat ularni nafaqat semantik, balki grammatik jihatdan ham izchil o‘rganishni taqozo etadi.

O‘zbek tilshunosligida iboralarni asosan semantik va stilistik nuqtai nazardan tasniflashga e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, ularning qaysi so‘z turkumlari bilan yaqin aloqada ekanini aniqlash, ayrim hollarda, yetarlicha chuqur yoritilmagan. Boshqa tillar tajribasi, xususan, rus va ingliz tilshunosligidagi izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklarni so‘z turkumlari bilan bog‘liq holda o‘rganish ularning sintaktik vazifasi va morfologik shakllanish qonuniyatlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot iboralarning o‘zbek tilidagi so‘z turkumlariga munosabatini aniqlash, mavjud nazariy qarashlarni tahlil qilish hamda misollar asosida ularning grammatik tabiatini yoritishni maqsad qiladi. Shu orqali frazeologizmlarning turkumiy xususiyatlarini aniqlash va ularning umumiy tasnif tizimini takomillashtirishga hissa qo‘shish ko‘zda tutiladi.

O‘zbek tilshunosligida iboralarning grammatik tabiatini chuqur tadqiq etishni Shavkat Rahmatullayev boshlab berdi. Olimning nomzodlik dissertatsiyasi aynan iboralarning grammatik xususiyatlari sharxiga bag‘ishlangan.[1]

Frazeologik birliklar, ya’ni iboralar, tilning eng murakkab va mazmunan boy elementlaridan biridir. Ularning o‘ziga xosligi shundaki, ular semantik yaxlitlikni saqlagan holda, grammatik va sintaktik jihatdan mustaqil so‘zlardan tashkil topadi. Sh.Rahmatullayev «Nutqimiz ko‘rki» nomli asarida iboralarga bo‘lgan munosabatini quyidagicha aniq bayon qiladi: «Bittadan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilish jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so‘zga ekvivalent, yaxlitligicha ustama ko‘chma ma’no anglatuvchi lug‘aviy birlikka ibora (frazeologik birlik) deyiladi. Bu o‘rinda «lug‘aviy birlik» deyish bilan iborani erkin bog‘lanmadan, «bittadan ortiq» deb ta’kidlash bilan sodda so‘zlardan «leksik negizlar» deb ta’kidlash bilan analitik formadan, «birikma, gapga teng» deb ta’kidlash bilan qo‘shma so‘zdan, «yaxlitligicha ustama ko‘chma ma’no» deb ta’kidlash bilan to‘g‘ri ma’noli turg‘un birikmadan farqlaymiz»[2]

Sh. Rahmatullayevning berilgan ta’rifi frazeologik birlikning bir necha muhim xususiyatini bir vaqtning o‘zida ta’kidlaydi: ibora «bittadan ortiq leksik negiz»dan tashkil topadi, tuzilish jihatidan birikmaga yoki gapga teng, mazmunan so‘zga ekvivalent bo‘lib, yaxlitligicha ustama – ko‘chma ma’no anglatadi. Ushbu elementlarni grammatik nuqtai nazardan tahlil qilish muhim, sababi ular frazeologik birliklarning so‘z turkumlariga munosabatini aniqlashda ustuvor belgi bo‘lib xizmat qiladi. . «**Bittadan ortiq leksik negiz» – ichki tuzilish va hokim-tobe bo‘lak munosabati:** Iboraning ichki tuzilishi undagi so‘zlarning funksional taqsimotini aniqlaydi: qaysi element **hokim bo‘lak** (asosiy vazifani bajaruvchi) hisoblanadi, qaysi element esa **tobe bo‘lak** (bog‘lanuvchi yoki yordamchi) sifatida qatnashadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, iboralar yirik til birligi hisoblanib, kamida ikkita mustaqil leksemalarning mazmuniy va grammatik bog‘liqligidan tarkib topadi. Iboralarning ifoda plani deganda esa iboralarni tashkil etuvchi so‘zlar tushuniladi. Shu sabab, iboralarning ifoda plani tarkibi kamida ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlardan iborat bo‘lib, ular o‘zaro sintaktik va semantik jihatdan bog‘langan. Sintaktik tuzilishi nuqtai nazaridan iboralar so‘z birikmasi yoki gapga teng bo‘lishi mumkin. Bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik ma’no uni sintaktik birlik (nutq birligi) deb emas, balki semantik birlik (til birligi) deb qarashga olib keladi.[3]Shu bilan birga, iboralar tarkibida qatnashgan so‘zlar hokim-to-

[1] Раҳматуллаев Ш. Основные грамматические особенности образных глаголъных фразеологических единиц современного узбекского языка: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. –М., 1952.
[2] Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. –Toshkent: Fan nashriyoti, 1970. –56 b.
[3] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilida fe’l frazemalarning bog‘lashuvi. –Toshkent: Universitet, 1992. –B.10.

be bo‘lak munosabatida bo‘ladi: hokim bo‘lak asosiy grammatik vazifani bajaruvchi so‘z, tobe bo‘lak esa unga bog‘langan yordamchi elementdir. Masalan, *ko‘zi ilindi* iborasida «ko‘zi» – ega (tobe bo‘lak), «ilindi» – kesim (hokim bo‘lak) vazifasini bajaradi: *nomusi bukildi* iborasida esa «nomusi» – tobe bo‘lak, «bukildi» – hokim bo‘lak vazifasini bajaradi. Bu munosabat iboraning sintaktik yaxlitligini va gap tarkibidagi funksiyasini belgilashga yordam beradi.

Iboralarning o‘ziga xos xususiyati – turg‘unlik bo‘lib, ular leksik va grammatik jihatdan barqaror bo‘ladi. Bu o‘rinda turg‘unlik ikki jihatda namoyon bo‘ladi:

- Iboraning grammatik shakllarga kirishi yoki kirmasligi;

- Iboraning leksik tarkibi o‘zgarishi yoki o‘zgarmasligi.

Turg‘unlikni mutlaqo o‘zgarishga yo‘l qo‘ymaslik deb tushunish noo‘rin. Ba’zi iboralarda *(yog‘ tushsa yalaguday, ko‘z ochib yumguncha, tomdan tarasha tushganday)* grammatik o‘zgarishlar yuz bermaydi. Boshqa iboralarda esa nutq kontekstida grammatik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi*: boshi osmonga yetdi, og‘zi qulog‘ida, ta’zirini bermoq, qo‘li uzun*. Shu jihat frazeologik birliklarning grammatik jihatdan ham kontekstga moslashuvchan xususiyatini ko‘rsatadi.

Iboralar ham so‘zlar kabi turkumlanadi, turlanadi va tuslanishga ega bo‘ladi. Bu ularning grammatik va semantik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq. Biroq ularni turkumlarga ajratishda asosiy mezon ularning tarkibidagi hokim-tobe bo‘laklar orqali aniqlanadigan turkumiy mansublik emas, balki ularning semantik anglatishi, ya’ni iboraning o‘zida mujassamlashgan ma’nosi hisoblanadi. Shu jihatdan, iboralar tahlilida faqat grammatik shakl yoki sintaktik vazifa yetarli bo‘lmaydi, chunki ba’zi iboralarning grammatik vazifasi ular qaysi so‘z turkumiga mansub ekanini to‘liq aniqlashga yordam bermaydi.

Professor Sh. Rahmatullayevning ilmiy qarashlariga tayangan holda, iboralarni turkumlarga ajratishda semantik asosga alohida e’tibor qaratiladi. Unga ko‘ra, iboraning qaysi turkumga yaqinligi uning ifodalayotgan ma’nosi, amalga oshirayotgan harakat yoki tavsiflovchi xususiyatlari bilan belgilanadi. Masalan, *qo‘lga tushirmoq* iborasi aniq harakatni ifodalaydi va fe’l turkumiga mansub bo‘lib, *sof dil* yoki *so‘xtasi sovuq* kabi iboralar shaxsning belgi-xususiyatini ifodalab, sifat turkumiga mansub. Shu tarzda, iboralarning semantik jihatdan turkumiy tahlili ularning lingvistik xususiyatini aniqroq ko‘rsatadi.

Iboralarni turkumlash jarayoni quyidagi xususiyatlarga asoslanadi:

1. Semantik markaz – ibora o‘zida mujassamlashtirgan ma’no, harakat, holat yoki sifat.

2. Sintaktik munosabat – hokim-tobe bo‘laklar orqali iboraning ichki sintaktik tuzilishi va gap tarkibidagi vazifasi.

3. Grammatik moslashuvchanlik – iboraning grammatik shakllarga kirishi yoki kirisholmasligi.

Natijada, iboralar tahlili so‘z turkumlariga ularning **mazmuni va funksiyasi** asosida bog‘lanishi, grammatik va sintaktik vositalar esa bu tahlilni yanada aniqroq qilishda yordamchi vosita sifatida ishlatiladi. Shu yondashuv nafaqat frazeologik birliklarni ilmiy asosda tasniflash imkonini beradi, balki ularni o‘zbek tilidagi semantik va grammatik xususiyatlari bilan puxta o‘rganish imkonini ham beradi.

O‘zbek tilida mavjud iboralar morfologik jihatdan turkumlarga ajratilib, fe’l iboralar, sifat iboralar, ravish iboralar hamda ot iboralarga bo‘linadi. Iboralarning katta qismini esa fe’l iboralar tashkil etadi. «Fe’l frazemaning bog‘lashuv imkoniyati, avvalo, uning tarkibidagi fe’l leksemaga qarab belgilanadi» – deydi Sh.Rahmatullayev o‘zining fe’l frazemalar bog‘lashuvi yoritilgan asarida.[1]

Xulosa qilib aytganda, iboralar tarkibi va hokim-tobe bo‘lak munosabatlari, ularning turg‘unligi va sintaktik bog‘lanishi, frazeologik birliklarni so‘z turkumlariga taalluqligini aniqlashda asosiy diagnostik vositalardir. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning o‘zbek tilidagi grammatik tabiatini chuqurroq tushunishga, ularni so‘z turkumlari bo‘yicha tasniflash va lug‘aviy birlik sifatida aniqlash imkonini beradi.

Rezyume. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi iboralarning sintaktik tuzilishi, hokim-tobe bo‘lak munosabatlari va so‘z turkumlariga taalluqligi tadqiq etilgan. Iboralar tarkibidagi so‘zlar o‘zaro sintaktik-semantik bog‘lanishda qatnashadi, ularning turg‘unligi esa grammatik va leksik barqarorlikni ta’minlaydi. Maqolada iboralarni turkumlash mezonlari, ularning semantik markazi va sintaktik xususiyatlari batafsil yoritilgan. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarni ilmiy asosda tasniflash va ularning o‘zbek tilidagi lingvistik tabiati haqida tizimli xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Resume. This article investigates the syntactic structure of Uzbek phrases, the relations between governing and dependent components, and their affiliation with word classes. The words within phrases participate in syntactic-semantic connections, while their stability ensures grammatical and lexical consistency. The

[1] Rahmatullayev SH. O‘zbek tilida fe’l frazemalarning bog‘lashuvi. –Toshkent: Universitet, 1992. –B.6.

article provides a detailed analysis of the criteria for classifying phrases, their semantic core, and syntactic characteristics. The findings enable the scientific classification of phraseological units and provide systematic insights into their linguistic nature in the Uzbek language.

Резюме. В данной статье исследуются синтаксическая структура узбекских выражений, отношения между главными и зависимыми компонентами и их принадлежность к частям речи. Слова в составе выражений участвуют в синтаксико-семантических связях, а их устойчивость обеспечивает грамматическую и лексическую стабильность. Статья подробно рассматривает критерии классификации выражений, их семантическое ядро и синтаксические особенности. Полученные результаты позволяют научно классифицировать фразеологические единицы и дают системное представление о их лингвистической природе в узбекском языке.